

## BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI VA ROSSIYA DAVLAT ERMITAJ MUZEYI HAMKORLIK YO'LIDA YOXUD MUZEY XODIMLARINING BUXORO TARIXIGA DOIR TADQIQOTLARI

*Ochilov Alisher To'lis o'g'li*

*Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)*

Hozirgi globallashuv davrida dunyo miqyosida ilm-fan sohasida keskin tus olib borayotgan shiddatli raqobat, davlatlar o'zining ma'naviy, iqtisodiy-ijtimoiy holatini yanada yaxshilashga intilishi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida O'zbekiston ham ilm-fan, ta'lif, iqtisodiyot, sanoat, sport, turizm, san'at, madaniyat singari barcha sohalarda tizimli islohotlar olib bormoqda. Olib borilayotgan islohotlar Buxoro davlat universiteti faoliyati rivojiga ham samarali ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

*"Buxoro davlat universiteti<sup>1</sup> – 94 yildan buyon doimo Yangi marralar sari dadil odimlayotgan, O'zbekistonning qolaversa, sharif shahar Buxoroning ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotida o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan, pedagogik xodimlari o'z hayotini muqaddas ilm dargohi bilan bir umrga bog'lagan kelajagini o'ylagan, ilmi, kasbi, faoliyati bilan universitet shoniga shon qo'shayotgan salohiyatli talabalarga ega Oliy ta'lif muassasa."*



Universitet ham islohotlar natijasi o'larоq dunyoning yetakchi Oliy va ilmiy tadqiqot muassasalari hamda turli tashkilotlar bilan keng hamkorlik aloqalari olib bormoqda. Hamkorlik yana bir yetakchi Muzey (Rossiya Davlat Ermitaj muzeysi) bilan yo'lga qo'yildi.

*"Rossiya Davlat Ermitaj muzeysi<sup>2</sup> – ikki yarim asrlik tarixga ega, "Hermitning uyi", "Xolis joy" ma'nolarini anglatuvchi va turli davrlarda turli xil atalgan muhtasham, kolleksiyalarida uch millioniga yaqin eksponatlar - rasmlar, haykallar, grafika, ashyolar bor amaliy san'at, tangalar, buyurtmalar va*

<sup>1</sup> Universitet haqida bat afsil bilib oling: <https://buxdu.uz/>

<sup>2</sup> Muzey haqida bat afsil bilib oling: <https://www.hermitagemuseum.org/wps/portal/hermitage/>



*belgilar, quroq namunalari, arxeologik topilmalar va qadim zamonlardan to hozirgi kungacha dunyoning ko'plab xalqlari tomonidan yaratilgan boshqa qadriyatlar saqlanib kelayotgan Jahondagi eng kata muzeylardan biri."*



Buxoro va Ermitajning uzoq tarix bog'lab turadi. Sababi, Buxoro o'z davrida ilm-fan, ma'rifat va madaniyat markazlaridan biriga aylanib, bu shaxarda diniy va dunyoviy ilmlar rivoj topgan. Asrlar davomida Buxoroning dong'i butun Sharq bo'ylab faqat ilmu ma'rifat, madaniyat hamda savdo-sotiq sohasidagina emas, ba'lki Turkistonning yirik ma'muriy markazi sifatida ham taralib kelgan. Shu sababli Buxoro vohasi tarixi, moddiy madaniyati, arxeologik, etnologik va kartografik malumotlar doimo Ermitaj muzeyi ilmiy xodimlarini qiziqtirib kelgan.

Ermitaj ilmiy xodimi A.Yu.Yakubovskiy XX asrning 30 yillaridan boshlab Buxoro vohasi hududida antik va o'rta asrlar davrini o'rganish uchun jiddiy arxeologik tadqiqotlar amalga oshirila boshlaganini ko'rish mumkin<sup>3</sup>. A.Yu.Yakubovskiy ishni Buxoro vohasining shimoliy-sharqiy qismlarida joylashgan mudofaa istehkomlarini tekshirishdan boshladi. Ekspeditsiya faoliyati davomida Qiziltepa, Shoxshoxidon, Abumuslim, Bo'rixona, Ganchxona, Hazora va Dengak singari Kampirdevol bo'ylab bunyod qilingan yodgorliklar o'rganildi. Qiziltepa hududida ilk marotaba qishloq makonlarini tadqiq qilindi. Bu hududda joylashgan ko'hna shahar, qal'a, qo'rg'on, karvonsaroylar o'rni - Ganchtepa, Elmirzatepa, Abu Muslimtepa, Shahri Vayron, Qiziltepa, Oqsochtapa, Lavandoqtepa kabi yodgorliklar misolida o'rganadilar<sup>4</sup>. Ularning rejasi, qurilish tartibi aniqlanib, qog'ozga tushirildi, olib borgan tadqiqotlarning hisoboti esa 1940 yilda chop etilgan<sup>5</sup>.

A.Yu.Yakubovskiy ekspedistiysi to'g'risidagi hisobotida Kampirdevol bilan bog'liq muxim tarixiy muammolarga ham to'xtalgan. Jumladan, vohadagi o'troq xalq bilan dasht va cho'l mintaqasida ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholi o'rtasidagi munosabatlar masalasiga ham to'xtalgan edi. Ekspedistiya ishidagi yutuqlardan biri Hazora yaqinidagi arxeologik yodgorlik Deggaron<sup>6</sup>

<sup>3</sup> Массон М. Е. Наука в Узбекистане за 15 лет (1924-1939) //Археологические исследования в Узбекистане. -Ташкент, 1939. -С. 110-120.

<sup>4</sup> Мирзаахмедов Ж.К., Одилов Ш., Пардаев М.Х., Максудов Р. Қизилтепа қадимиятидан лавҳалар. -Тошкент,2002. -Б.22.

<sup>5</sup> Якубовский А.Ю. Краткий полевой отчёт о работах Зерафшанской археологической экспедиции Эрмитажа. ИИМК в 1939 г – ТОВЭ. Т.П.Л.: 1940.

<sup>6</sup> Деггарон- "Козон кўювчи" деган маънени англатади.





SCIENCE BOX

masjidini aniqlab, uni Samoniy maqbarasidan yosh emas, degan xulosalar berildi<sup>7</sup>. Lekin, A.Yu.Yakubovskiy tekshirgan bu yodgorliklar ancha yuzaki ko‘zdan kechirib chiqish tartibida, biror arxeologik qazishlarsiz amalga oshirilgan.

1939 yilda Poykend shaharchasida Rossiyaning Ermitaj muzeyining ilmiy xodimi A.Yu. Yakubovskiy ham arxeologik tadqiqotlarni amalga oshiradi. 1939 yildagi ekspeditsianing asosiy vazifasi:

1) Paykendda katta qazish ishlarini tayyorlash uchun yana arxeologik qidiruv ishlarini olib borish, chunki bu aholi punkti qadimgi davrlardan XII asrgacha mavjud bo‘lgan shaharning tarixi uchun katta qiziqish uyg‘otgan.

2) Qirning ustida joylashgan 20 gektar maydonni egallagan qadimgi zamonlarda kuchli devor bilan o‘ralgan shaharning qadimiy va markaziy qismini o‘rganish.

3) Shahristonning shimoli-sharqiy qismida saqlanib qolgan kuhendiz (qal'a) qoldiqlarini o‘rganish. Shahristonning janubi-g‘arbdan shimoli-g‘arbgaga cho‘zilgan devori qoldiqlarini o‘rganishdan iborat bo‘lgan<sup>8</sup>.

A.Yu.Yakubovskiy Poykendni tuzilishiga qarab uch qismga bo‘ladi. Shaharning bir nechta joyida shurf tashlanadi<sup>9</sup>. 1940 yilda Davlat Ermitaji xodimi V.N.Kesaev rahbarligi ostida N.P.Kiparisovoy va S.K.Kabanovlar ishtirokida Poykenddagи tadqiqotlarni davom ettirdi. V.N.Kesaev taxmin qilganidek shahar markazida islomgacha bo‘lgan davrga taaluqli ibodatxonani topildi. Ammo ishlar binoni bitta devorini ochish bilan chegaralandi<sup>10</sup>. Tadqiqotchilar shahar atrofi haqida ham qiziqarli malumotlarni berib, Poykendning sharqidagi Badiosiyo manzilgohiga to‘xtalib o‘tganlar. Tadqiqotchilar arxeologik tadqiqotlari natijasida yig‘ilgan malumotlar asosida Poykend sopollari, idishlarning qopqog‘idagi rasmlar<sup>11</sup> va turli xil o‘yinchoqlari<sup>12</sup> haqida bir qancha maqolalar tayyorlashdi.

1940-yildagi tadqiqotlar bilan Davlat Ermitajining Buxorodagi tadqiqotlarida 1980 yillarga qadar to‘xtalish sodir bo‘ldi.

1981 yilda O‘zSSR Fanlar Akademiyasining Arxeologiya instituti xodimi A.R.Muxamedvanov boshchiligidagi Paykendning stratigrafik o‘rganish maqsadida statsionar ishlar olib boriladi. Bundan tashqari, ikkinchi Shahriston va shahar atrofidagi hududda 10-asrga oid kulolchilik o‘choqlarini qazish, o‘lchash va tozalash ishlari olib borilgan.. Shaharning sharqiy chekkasida joylashgan Kuxendizda 5,5 x 4,3 m chuqurlikdagi qazish ishlari olib borilib, uning paydo bo‘lish vaqtini, shahar tarixining turli bosqichlarida o‘zgarib kelgan madaniy qatlamlarning aniqlash uchun foydalilanadi. Natijada Kuxandizning vujudga kelish davri aniqlandi va uning mustahkamlanish vaqtini haqida muhim ma’lumotlar olinadi.

A.Y.Yakubovskiy tomonidan ishlab chiqilgan dasturga muvofiq 1981 yilda Rossiyaning Davlat Ermitaji

<sup>7</sup>Нильсен В.А. Мечеть Деггара в селении Хазара (Архитектурно-археологический очерк) // Труды ИИА АН УзССР. - Ташкент, 1955. -Вып. 7. -С.61.

<sup>8</sup> Якубовский А. Ю. Зарафшанская археологическая экспедиция 1939 г // Краткие сообщения о докладах и полевых исследованиях института истории материальной культуры. -М.-Л., 1940. -Вып. IV. -С.48-52.

<sup>9</sup> Якубовский А. Ю. Зарафшанская археологическая экспедиция 1939 г // Краткие сообщения о докладах и полевых исследованиях института истории материальной культуры. -М.-Л., 1940. -Вып. IV. -С.51-66.

<sup>10</sup> Кесати Р. [Кесаев В.]. Раскопки на Пайкенде в 1940 г. // СГЭ. -Л., 1947. -Вып.IV.-С.26-29.

<sup>11</sup> Дьяконов М.М. Керамика Пайкенда//КСИИМК. -М., 1949. -Т.28. -С.89-93.

<sup>12</sup> Кипарисова Н.П. Игрушка-водолей из Пайкенда//СА.-М., 1949. -№ 10.; Кипарисова Н.П.Игрушка-водолей из Пайкенда // СА.1948. -С.310-316.





SCIENCE BOX

ilmiy xodimi G.L.Semenov O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining Arxeologiya instituti xodimi A.R.Muxamedvanov bilan hamkorlikda tashkil etilgan qo‘shma ekspeditsiyasi Paykend Shahristonning g‘arbiy yarmidagi shahar devorlarini o‘rganishdan boshladi. Shahriston II ilk Shahristonning g‘arb tomon kengayib borishi natijasida vujudga kelganligi, maydoni 7 ga, rejada u to‘rtburchak shaklida bo‘lib, atrofidagi devorda kamida uchta darvoza bo‘lganligi o‘rganildi<sup>13</sup>. Paykend shahridagi Shahriston II mudofaa tuzilmalari ilk marotaba o‘rganildi. Ushbu tadqiqotlar Poykent mudofaa devori tarixi uchun bir qator ma’lumotlarni berdi<sup>14</sup>.

Aynan 1981-yildan buyon Davlat Ermitaj muzeyi Buxoro vohasining Poykent arxeologik yodgorligida uzviy Arxeologik tadqiqotlarni amalga oshirib kelmoqda.

2000 yili O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti va Sankt-Peterburg Davlat Ermitaji qo‘shma ekspeditsiyasi Paykend yodgorligini statsionar o‘rganish doirasida Paykend arki va I-II shahristonida qazish ishlari olib boradi. Ekspeditsiyaning muhim yutuqlaridan biri ark markazidan IX-X asrlarga oid minora poydevorining qoldiqlarining topilganligidir. U 42x24-25x8-10 sm o‘lchamdagisi loy g‘ishtdan yotqizilgan, strukturaning tashqi diametri 10,6 m, qolgan balandligi 1,3 m. Minoraning asosi uchta devor halqalaridan iborat. Tashqi halqanining kengligi 1,35 m, o‘rta halqanining diametri 7 m va kengligi 0,9 m. Markaziy massiv qismning diametri 4,7 m ga etadi. Arxeologik materiallarga (keramika) ko‘ra, minoraning qurilishi IX asrga to‘g‘ri keladi. Paykend minorasi O‘rta Osiyoda bunday tuzilmaning eng birinchi namunasidir. Bundan tashqari, u o‘sha paytdagi masjid qoldiqlari borligi haqida dalolat beradi<sup>15</sup>.

2001 yili O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining Buxoro arxeologik ekspeditsiyasi, Sankt-Peterburg Davlat Ermitaji va Tayvan Respublikasi Tayvan milliy san’at kollejining professori Joan Stenli-Beyker boshchiligidagi bir guruh aspirantlari Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanidagi Paykend yodgorligida tadqiqot ishlarini davom ettirdilar. Tadqiqotlar Paykend arksi va I-II shahristonida olib borilgan.

Ark majmuasida, hovlining g‘arbiy devori bo‘ylab VIII asrga oid ustun qoldiqlari topilgan. Shimoldan kirish maydoni 10 m<sup>2</sup> bo‘lgan ikkita qo‘sni xonaga olib kirgan. Kirish joyiga eng yaqin xonada uchta devor bo‘ylab sufalar joylashgan. Janub burchagiga kirish 25 m<sup>2</sup>lik ikkita qo‘sni xonaning majmuasiga olib keladi. Ulardan biri oshxona vazifasini bajargan bo‘lsa, ikkinchisi - sufalar va markazdagi podiumlar turar joy bo‘lishi mumkin deb taxmin qilingan. Uyning asosiy qismi taxminan 200 kvadrat metr maydonni egallagan. Bu yerda bir-biriga o‘xshash beshta sopol idishlar topilgan. Xonaning to‘siga boy me’moriy bezak kuzatilgan. Ikkita o‘yilgan ustunlar qoldiqlari, palmettali friz va stulga o‘tirgan oilaning homiysi bo‘lgan soqolli odamning bir necha bor takror muhrlangan tasviri topilgan. Uyda bir nechta ovqat xonalari va polda don qoldiqlari topilgan.

Shunday qilib, uyning asosiy qismi katta zal, markazda sufalar va podium va oshxona bilan ajralib turgan. Xuddi shu uy egasi bilan bog‘liq bo‘lgan alohida kirish joylari bo‘lgan ikkita alohida xonalar do‘kon yoki

<sup>13</sup>Семенов Г.Л. Согдийский город V-XI вв. Формирование плана (по материалам Пайкенда вв Бухарском оазисе и Ак-Бешима в Семиречье). Диссертация в виде научного доклада на соискание ученой степени доктора исторических наук. -Санкт-Петербург,2002.

<sup>14</sup>Мухамеджанов А.Р., Семенов Г.Л. Исследование городских стен Пайкенда (результаты работ 1981 г. на шахристане II) // ИМКУ.–Ташкент,1984.-Вып.19. -С.130-153.

<sup>15</sup> Семенов Г. Л., Мирзаахмедов Д. К. Раскопки в Пайкенде // Археологические исследования в Узбекистане - 2000 год. –Самарканда,2001. -С.133-139.



turar joy uchun ijaraga berilishi mumkin deb taxmin qilingan<sup>16</sup>.

Tadqiqotlar natijasi o‘larоq Poykent muzeyi tashkil etildi, antik va o‘rta asrlar davri shahri ancha obod etildi.

2002 yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining Buxoro arxeologik ekspeditsiyasi va Davlat Ermitaj muzeyi (Rossiya) Paykend yodgorligida qazish ishlarini davom ettirdilar. Tadqiqotlar o‘tgan yillarning asosiy ob’ektlari: ark, I va II Shahristonda olib borildi.

Arkning ilk madaniy qatlamlari ibodatxonaning ichki hovlisida ochiladi, u yerda Somoniylar zamonidagi vayronagarchilik qatlamlari ostida dekorativ friz bilan devorning bir qismi ochilgan. Devor kvadrat g‘ishtdan qilingan. Frizning balandligi 40 sm, g‘ishtning o‘lchами 40-42 x 29-32 x 9-11 sm.

Arkning ikkinchi qazish joyi uning janubiy qismida joylashgan bo‘lib, u yerda yo‘lakning bir qismi, janubiy devor bo‘ylab ilgari ochilgan ikkita koridorga perpendikulyar joylashgan. Uning xarakterli xususiyati sharqiy va g‘arbiy devorlar bo‘ylab baland 1 m-dan ortiq bo‘lgan sufa ochilgan. SHunday qilib, ushbu qismidagi arkning tashqi devoridan kirish kompleksining mavjudligi taxmin qilinadi. Majmua arkda VIII asrga qadar mavjud bo‘lib, uning sharqiy qismi ibodatxonaning hovlisi tomonidan berkitilgan va g‘arbiy qismidagi xonalar ham 8 asrga qadar faoliyatda bo‘lgan. Ilk o‘rta asrlarda ibodatxonaning ichki hovlisi bilan chegaradosh bir nechta xona joylashganligi aniqlanadi.

2002 yil dala mavsumida Shahriston 2 ning rivojlanishi va ko‘cha tarmog‘ini o‘rganish maqsadida ark devorida ishlar davom ettiriladi. Ark devori bo‘ylab parallel joylashgan ko‘chaning qazish ishlari davom ettirildi. Hammasi bo‘lib 1991 yildan 2002 yilgacha 115,4 m ko‘cha qazilgan. 9 va 10 uylari chegarasidan ko‘chaning shimol tomon burilishigacha 35,7 m ko‘cha ochiladi. Uning kengligi 3,5 m gacha. bu ko‘cha arkning janubiy darvozasiga borishi aniqlanmagan. Eng qiziqarli topilmalar orasida, uyning 10-sonli oshxona blokida temir tutqichli tosh qozon qayd etilgan<sup>17</sup>.

2003 yildagi dala mavsumida Davlat Ermitaj muzeyi (Rossiya) va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining qo‘shma ekspeditsiyasi Paykent yodgorligini qazish ishlarini davom ettirdilar. Arxeologik qazuv ishlari davomida Paykentda birinchi marta shaharga kirish darvozasi ochiladi. U minoradan sharqda 1 va 2 chi shahriston devorlari chorrahasida joylashgan bo‘lib chiqadi. Darvoza eshigining kengligi 2,75 m. To‘sqliangan shaharga kirish eshigi Buxoroning Arkiga kirishiga o‘xshaydi.

Shahriston 2 ko‘cha tarmog‘ini qazish ishlari davom ettiriladi. Janubi-sharqiy qismida ko‘chalar tarmog‘ining buzilishi aniqlanadi. Shimoliy-janub tomon ketadigan ko‘chalar bir-biriga parallel ravishda 20 m masofada joylashganligi aniqlanadi<sup>18</sup>.

2005 yildagi dala mavsumida Davlat Ermitaji va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Arxeologiya instituti qo‘shma arxeologik ekspeditsiyasi Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanidagi Paykend yodgorligini qazish ishlarini davom ettirdilar. Ish shaharning asosiy qismlarini qamrab olgan to‘rtta ob’ektda olib borildi: ark, I, II shahristans va shahar atroflari. Taxminan 300 m<sup>2</sup> maydonga ega

<sup>16</sup>Семенов Г. Л., Мирзаахмедов Д. К. Раскопки в Пайкенде // Археологические исследования в Узбекистане - 2001 год. -Тошкент,2002. -С.138-151.

<sup>17</sup> Мирзаахмедов Д.К., Семенов Г. Л., Малкиель И.К. , Бехтер Э. В., Сапаров Б.Н., Абдуллаев Б., Торгоев А.И. Исследования в Пайкенде в 2002 г. // Археологические исследования в Узбекистане - 2002 год. –Тошкент, 2003. - С.99-111.

<sup>18</sup> Мирзаахмедов Д.К., Семёнов Г.Л., Абдуллаев Б., Сапаров Н., Сабиров Н., Торгоев А. Исследования в Пайкенде // Археологические исследования в Узбекистане – 2004-2005 годы. -Тошкент,2006. -Вып.5. -С.152-155.



bo‘lgan arkning janubiy qismida ustun poydevorlari ochilgan. Ular rejada to‘rtburchak shaklida bo‘lib (1,9x1,9m), bo‘lib, bir-biridan 3,6 x 3,75 m masofada joylashgan. Jami 17 ta poydevor ochilib, ular uchta qatorda joylashtirilgan. Ushbu bino joylashgan tashqi devorlar ochiq emas edi.

Shahriston 1 da asosan 10-11 asrlarga oid turar-joy binolarining qazish ishlari yakunlanadi. Shahar janubidagi devorlardan tashqarida, shahar darvozalari yaqinidagi karvonarkda qazish ishlari davom etadi. Bu yilgi qazish maydoni 320 m<sup>2</sup> ni tashkil etgan. Binoning hayotida ikkita asosiy davr qayd etilgan. Birinchi bosqichda bu karvonark bo‘lib, keyinchalik u turar joy kvartalining markaziga aylanadi<sup>19</sup>.

2006-2007 yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining qo‘shma ekspeditsiyasi va Davlat Ermitaj muzeyi (Sankt-Peterburg) Paykend shaharchasini qazish ishlarini davom ettirdilar. Yodgorlikning barcha asosiy qismlari: ark, Shahriston 1, Shahriston 2, shuningdek "janubiy chekka" ob’ektida ishlar olib boriladi.

Arkning shimoliy qismida joylashgan ibodatxona sharqida uning hovlisi bilan chegaradosh (40x40x10 sm) xom g‘ishtdan qilingan (balandligi 2,1 m gacha) devor ochiladi. Oldingi qazishmalar natijasida topilgan monumental devor (B-3) yuqori ibodatxona maydonini hovlidan ajratib turgan. Hovlining shimoliy va sharqiy devorlarini 2-qavatda birlashtirilgan to‘rt bosqichli zinapoyaning (1,95x1,1m) qoldiqlari kuzatilgan. Ushbu zinapoyadan sharqiy devordan shimoliy devorga o‘tish yo‘li bo‘lgan bo‘lishi mumkin bo‘lgan. Tadqiqotchilar ta‘kidlashicha, ushbu qurilish uslubi Sug‘d ziyoratgohlariga xos bo‘lgan<sup>20</sup>. 2006 yilda arkning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan masjid poydevori ostida qadimgi davrlardagi qurilish qoldiqlari o‘rganilgan<sup>21</sup>.

2008-2009 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining qo‘shma arxeologik ekspeditsiyasi va Davlat Ermitaji Paykend shaharchasini qazish ishlarini davom ettirdilar. Paykentda olib borilgan qazishmalar shaharning tuzilishini o‘rganishga qaratilgan edi. Arkning janubi-g‘arbiy qismida olib borilgan ishlar qadimgi Paykentni o‘rganish bilan bog‘liq o‘tgan yillardagi izlanishlarning davomi bo‘lgan. Tadqiqotlar ark devoriga ichkaridan tutashgan yo‘lak - taroqsimon tizim mavjudligini tasdiqlaydi. Hozirgi vaqtida to‘qqizta xona ochilgan: janubda ettita va g‘arbiy tomonda ikkita ochilgan. Binolar bitta rejaga muvofiq qurilganligi aniqlanadi.

2010-2011 yillarda Davlat Ermitajining ekspeditsiyasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Arxeologiya instituti bilan birgalikda Paykend yodgorligini o‘rganishni davom ettirdi. Qazishmalar Sitadel (ark), Shahriston 1 va janubiy shahar atrofida olib boriladi: Sitadelta to‘rtta ob’ekt o‘rganiladi: biri shimolda va uchta janubi-g‘arbiy sektor (bo‘lim)da. Tadqiqotlar janubi-g‘arbiy qismda, 3-4 asrlarga tegishli ark devorida joylashgan kazarmalar deb taxmin qilingan taroqsimon yo‘lak majmua (kompleks) siga davom ettiriladi. Yana beshta xona (7, 11, 13, 14, 15) va ularga tutashgan yo‘lakning 9 metrlik qismida ochiladi. Taxminan bir xil o‘lchamdagisi 4,5 x 3,5 m o‘lchamdagisi xonalarda (7-sondan tashqari) sufalar bo‘lgan. Aniqlanishicha, majmua ikki yil ichida jadal sur’atda qurilgan. Tadqiqotchilar majmuani qurilishida yuqori sifatlari qurilish materiallaridan foydalanimaganligini, xona devorlarining gipsli suvoqlarida o‘tkir tig‘li asbobda tushirilgan vertikal chiziqlar saqlanib qolganini dalil sifatida ko‘rsatishadi.

Shunday qilib, arkning janubi va shimolida olib borilgan qazishmalar uning bir vaqtning o‘zida devor

<sup>19</sup> Мирзаахмедов Д.К., Семёнов Г.Л., Абдуллаев Б., Сапаров Н., Сабиров Н., Торгоев А. Исследования в Пайкенде. Археологические исследования в Узбекистане – 2004-2005 годы.–Тошкент,2006. –Вып.5. -С.152-155.

<sup>20</sup> Раскопки в Пайкенде в 2004 г. // Материалы Бухарской археологической экспедиции (МБАЭ). -СПб., 2005. - Вып. VI. -С.46.

<sup>21</sup> Мирзаахмедов Д.К., Семенов Г.Л., Торгоев А.И., Омельченко А.В., Сапаров Н.Ж., Собиров Н.Ж. Раскопки в Пайкенде в 2006 – 2007 г. // Археологические исследования в Узбекистане. –Тошкент,2009. –Вып.6. -С.162-174.



bilan o‘ralganligidan dalolat bergen. Janubda istehkomlar yangi maydonga kengaytirilgan, shimolda esa ular eski binolar tepasida qurilgan. Qazishmalar jarayonida turli xil topilmalar uchragan. Ular orasida mis va kumush tangalar, suyakdan yasalgan soch turmakkari, sirtiga bezak berilgan temirdan yasalgan quti va boshqa topilmalar uchragan. Numizmatik materiallar, Paykend arksi devori majmuasining xronologik davrini aniqlashda muhim topilma bo‘lib xizmat qilgan. Mis tangalar so‘nggi kushon davri xukmdorlari Xuvishka, Vasudeva va Kanishka 2 (3) tangalariga<sup>22</sup> taqlid qilib zarb qilinganligi aniqlanadi. Bunday tanga namunalari Buxoro Sug‘dining o‘ziga xos pul muomalasining xususiyati bilan izohlash mumkin<sup>23</sup>.

2023-yil avgust oyida ham Davlat Ermitaj muzeyining Poykentdagagi arxeologik tadqiqotlari Ark va Janubiy Rabot qismlarida amalga oshirildi. Tadqiqot natijasida antik va ilk o‘rta asrlarga doir sopol buyumlari, metal buyumlari, tangalar va bir qancha artefaktlar topib o‘rganildi. Poykendda olib borilgan arxeologik izlanishlar bo‘yicha yillik hisobotlar Ermitaj rahbarligida har yili alohida kitob yoki maqola shaklida e’lon qilinadigan bo‘ldi.

Ermitaj va Buxoro o‘rtasidagi aloqalar bugun yangi bosqichga ko‘tarildi. Sababi, Buxoro davlat universiteti va Davlat Ermitaj muzeyi o‘rtasida hamkorlik aloqalari yo‘lga qoyildi.



<sup>22</sup> Зеймаль Е.В. Древние монеты Таджикистана. -Душанбе, 1983. -С.241-245.

<sup>23</sup> Мирзаахмедов Д.К., Омельченко А.В., Сапаров Н.Ж., Торгоев А.И.. Раскопки в Пайкенде в 2010–2011 гг. // Археологические исследования в Узбекистане – 2010-2011 годы. -Самарканд. 2012. –Вып.8. -С.173-191.



2023 yilning 7-11-avgust sanalarida Buxoro davlat universiteti rektori Xamidov Obidjon Hafizovich boshchiligidagi Qatag'on qurbanlari muzeyi direktori Hamroyev Azalshoh Hazratovich, Islom tarixi va manbashunoshligi, falsafa kafedrasini mudiri Namozov Bobir Bahriyevich, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasini dotsenti Ochilov Alisher To'lis o'g'lidan tarkib topgan delegatsiya Buxoro tarixiga doir manbalarni chuqur o'rganish va viloyatning Turizm salohiyatini oshirish maqsadida Rossiya davlatining Sankt Peterburg shahrida bo'ldi! Delegatsiya safarning birinchi kuni (7.08.2023 sanasida) Ermitaj muzeining Lelingrad viloyati Viborg shaharchasidagi Viborg filialiga tashrif buyurdi. Ermitaj-Viborg muzeyida "XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro amiri tomonidan Rossiya imperatoriga yuborilgan hadyalar" ko'rgazmasida ishtirok etildi. Ko'rgazmada Amirlar tomonidan Buxoro tarixi, madaniyati va etnologiyasini aks ettiruvchi, estetik did bilan tayyorlanib Rossiya imperatorlariga sovg'a tariqasida yuborilgan eksponatlar kuzatildi. Ushbu ko'rgazmadan unumli foydalangan holda Buxoro amiri tomonidan yuborilgan "hadyalar" katalogi, ularning tasnifi tuzib chiqildi. Viborg shahrining turizm salohiyati bilan yaqindan tanishib chiqib Buxoroning turizm salohiyatini oshirishda Viborgdan o'rganadigan jihatlar yuzasidan takliflar tayyorlandi!

